Makkamov Zokirjon Xusanboyevich	
TO'SIQSIZ TURIZMNING XUSUSIYATLARI VA UNI RIVOJLANTIRISH OMILLARI.....	1723
Umurzakova D. E.	
СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ И ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ ФАКТОРЫ ФОРМИРОВАНИЯ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО МЕХАНИЗМА РАЗВИТИЯ МІСЕ-ТУРИЗМА В УЗБЕКИСТАНЕ	1729
Нарзуллаева Фариза Акмалевна	
MEVA-SABZAVOTCHILIK TARMOG'I – MILLIY IQTISODIYOTNING ASOSIY BO'G'INI SIFATIDA.....	1734
Israilova Xikoyat Musakulovna	
DAVR XARAJATLARI HISOB VA TAHLILI	1739
Sh.M. Ergashev	
KORXONALAR FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	1744
Nosirov Sardor Xolmirzayevich	
THE ROLE OF DIGITAL CURRENCY IN ATTRACTING INVESTMENT.....	1750
Malikov Numonjon Kamalovich, Azimov Khumoyun Khamid ugli, Pardayev Khusniddin Jakhongir ugli	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ JOYLARI AHOLISI MEHNAT SALOHİYATIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARINI BAHOLASH	1758
Amaniyazova Rayxan Bayniyazovna	
SANOATNI MILLIY IQTISODIYOTDAGI O'RNI VA UNI INNOVATSION RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI	1762
Raxmatullayev Doston Asad o'g'li	
ОЦЕНКА ЭФФЕКТИВНОСТИ ФИНАНСОВОГО УПРАВЛЕНИЯ ПРЕДПРИЯТИЕМ НА ОСНОВЕ КОМПЛЕКСНЫХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО АНАЛИЗА.....	1766
Минутдинова Лилия Тагировна	
FUQAROLIK JURNALISTIKASINING GENDER JIHATLARI: XORIJIY AMALIYOTNING TAHLILI	1771
Zakirova Oisha Vohid qizi	
MINTAQQA IQTISODIYOTINING BARQAROR RIVOJLANISHIDA SANOAT KORXONALARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARI.....	1776
Jalolova Muazzamxon Akbarjonovna	
ФОРМИРОВАНИЕ ФИНТЕХ-ЭКОСИСТЕМЫ В УЗБЕКИСТАНЕ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ НАЦИОНАЛЬНОГО РЫНКА.....	1780
Шамахмудова Шоира Олег кизи	
INNOVATSION LOYIHALARNI MOLİYALASHTIRISHNING ZAMONAVIY USULLARI: MUAMMO VA YECHIMLAR.....	1786
Rafiyeva Zarina Husanovna	
ВЛИЯНИЕ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ФАКТОРОВ В ЗЕЛЕННОЙ ЭКОНОМИКЕ НА ЗАНЯТОСТЬ НАСЕЛЕНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ	1790
Акбарова Малика Ильхомовна	



INVESTITSION FAOLLIK VA JOZIBADORLIK KO'RSATKICHLARINI TAHLIL QILISH YO'NALISHLARI	1798
O'razaliyev Javlonbek O'rinboyevich	
ENVIRONMENTAL FACTORS CONTRIBUTING TO THE INCREASE IN CHRONIC RHEUMATIC DISEASES IN CHILDREN	1802
Kuldashv Sardor Furkatovich, Alpykarov Bakhodir Khudayberdiyevich, Umarova Khadicha Abdullayevna	
ФОРМИРОВАНИЕ КОНКУРЕНТНЫХ ПРЕИМУЩЕСТВ ТОВАРНОГО БРЕНДА В ЦИФРОВОЙ СРЕДЕ НА ОСНОВЕ НЕЙРОМАРКЕТИНГОВЫХ ИНСТРУМЕНТОВ (НА ПРИМЕРЕ QAND).....	1807
Юлдашев Жамшид Аббасович, Эрмуратова Камила Мисир кизи	
ISHLAB CHIQRARISH XARAJATLARINING BOZOR MUNOSOBATLARI SHAROITIDA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARINING TAHLILI	1816
Turebekov Anvarbek Adilbekovich	
SHAHAR VA TUMANLARDI INKLYUZIV RIVOJLANISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1822
Xamroqulov M.J.	
O'ZBEKISTONDA VA G'ARB MAMLAKATLARIDA XAYRIYA YONDASHUVLARI: IJTIMOY, IQTISODIY VA SHAHSIY OMILLARNING QIYOSIY NAZARIY VA EMPIRIK TAHLILI.....	1826
Azimjon Musamuxamedov	
AHOLINI IJTIMOYIY QO'LLAB-QUVVATLASHDA MOLIVAVIY RESURLARDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI	1832
Zoya Xalekeyeva, Jamgirbaeva Nilufar Dauilbay qizi	
ЭКОНОМИКА ТРУДА И УПРАВЛЕНИЕ ПЕРСОНАЛОМ HR В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ	1837
Амирджанова Ситора Суннат кизи, Шаюсупова Наргиза Тургуновна, Исомухаммедов Исроил Исомухаммад ўғли, Маматкулов Ҳумоюн Бобир ўғли	
INVESTITSIYALARNI JALB QILISHNING ASOSIY MEKANIZMLARI VA USULLARI	1843
Jumaqulov Ozodbek Shuhrat o'g'li	
ПУТИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СИСТЕМЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН НА ОСНОВЕ ПРИМЕНЕНИЯ «ФИНСКОГО ЧУДА»: АНАЛИЗ БАРЬЕРОВ ВНЕДРЕНИЯ И ПУТИ ИХ УСТРАНЕНИЯ.....	1847
Холмуратов Джахонгир Салимбек ўғли	
O'ZBEKISTONDA YALPI OMILLAR SAMARADORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI IQTISODIY VA INSTITUTIONAL OMILLAR TAHLILI	1854
Djalilov Dostonbek Abduazizovich	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ФИНАНСИРОВАНИЯ ЖИЛИЩНОГО СТРОИТЕЛЬСТВА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	1859
Жаксымуратов Казбек Раджович, Кощанова Сахибжамал Бахитбаевна	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA SOLIQ SIYOSATINING TRANSFORMATSIYASI: XORIJ TAJRIBASI.....	1865
Roza Xudayberganova	
RAQAMLI BANK XIZMATLARI ASOSIDA YASHIL MOLIVAVIY MAHSULOTLARNI KENGAYTIRISH ISTIQBOLLARI	1871
Kuvotova Dilnora Kaxramonovna	
КРЕАТИВНЫЕ ИНДУСТРИИ КАК ДРАЙВЕР ИННОВАЦИОННОГО РОСТА ЭКОНОМИКИ	1876
Бекимбетова Гулнора Маратовна	
MINTAQA IQTISODIYOTI RIVOJLANISHIDA INVESTITSION JARAYONLARNING TA'SIRI DINAMIKASINI IQTISODIY-STATISTIK TAHLILI	1882
Mahmudov Tursunpo'lat Davronovich	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI SHAROITIDA SEDANA (NIGELLA SATIVA L.) YETISHTIRISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI	1889
Umurzakova Nargiza Maksetbay qizi	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA INFLYATSIYANI JILOVLASH VA BARQAROR NARX SHAKLLANTIRISH MEKANIZMLARI	1894
Abdullayev Habibullo, Burhonova Gulnoza Kadam qizi	



ICHKI ISHLAR ORGANLARIDA IJRO INTIZOMINI MUSTAHKAMLASHNING KONSTITUTSIYAVIY KAFOLATLARI.....	1899
E.U. Azizov, X.D. Sarabekov	
INNOVATSION RIVOJLANISH SHAROITIDA TURIZM SALOHİYATIDAN FOYDALANISH JARAYONLARINI TAKKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	1905
Sharipov Baxtiyor Mixlibayevich, Isayeva Nargiza Xamidovna	
BANK FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	1910
Kasimov Baxtiyor Usmanovich	
XORAZM VILOYATI IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY INVESTITSİYALARDAN SAMARALI FOYDALANISH TAHLILI.....	1914
Matniyazova Iqboloy Baxramovna	
BUZILGAN YERLARNI REKULTIVASIYA QILISH.....	1920
G'ayrat Aminovich Muxamedov	
QUM HUDUDLARIDAGI HUDUDIY-ISHLAB CHIQARISH MAJMUALARIDAGI TARMOQLARARO TASHQI TA'SIRLAR.....	1925
G'ayrat Aminovich Muxamedov	
INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA TURIZM FAOLIYATINI BOSHQARISH	1931
Ismailov Muhammadali Avdumumin o'g'li	
O'ZBEKISTONDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING BANDLIKKA TA'SIRI: EMPIRIK TAHLIL	1938
Sobirov Baxtiyor Karimjon o'g'li	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМОВ РАЗВИТИЯ ЗЕРНОВОГО ПРОИЗВОДСТВА В ПРОМЫШЛЕННОЙ СРЕДЕ.....	1944
Аъзамкулов Нурбек	
BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASHDA BUDJET DAROMADLARINING AHAMIYATI	1948
Yaxshimuratova Xasiyat Xudaybergenovna	
KICHIK SANOAT KORXONALARIDA TEXNOLOGIK MODERNIZATSIYA QASHQADARYO TAJRIBASI	1952
Sultanov Dilshod	
UY XO'JALIKLARIDA CHORVACHILIK MAHSULOTLARINI YETISHTIRISHNI MOLIYALASHTIRISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH OMILLARI.....	1955
Odilov Umid Abduxalimovich	
ЗЕЛЕНАЯ ЭКОНОМИКА И УСТОЙЧИВЫЕ ИНВЕСТИЦИИ: ТЕНДЕНЦИИ И ПЕРСПЕКТИВЫ	1963
Абдувалиева Зилола Абдуллаевна, Барно Нурмухамедова Исмаиловна	
KORXONANING RAQOBAT USTUNLIGINI TA'MINLASHDA BOZOR SEGMENTATSIYASI STRATEGIYALARINING O'RNI	1976
Tursunxo'jayev Axrorxo'ja Jamoliddin o'g'li	
SMART TEXNOLOGIYALARNING OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARINI ISHLAB CHIQARISHGA TA'SIRI.....	1983
Axmedova Nafisa Amiriddin qizi	
SOLIQ TIZIMIDA NEFT-GAZ SANOATI KORXONALARINI SOLIQQA TORTISHDAGI MUOMMOLAR	1989
Jabborov Mashrab Ismoil o'g'li	
UZUMCHILIKNI RIVOJLANTIRISHDA KLASSTER TIZIMINING AHAMIYATI.....	1993
Karimova Nilufar Sadridin qizi	
SOLIQ ORGANLARINING SOLIQ TO'LOVCHILAR BILAN HAMKORLIGI.....	1997
Yuldashev Yashnarjon Xolmirzaevich	
XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA ISHLAB CHIQARISH XARA JATLARINING STRATEGIK BOSHQARUV HISOBINI TASHKIL QILISH YO'NALISHLARI.....	2001
Normatova Gulmira Xayrullayevna	
ACTIVITIES OF FREE ECONOMIC ZONES IN UZBEKISTAN.....	2007
Mamadiyev Elyor Akmalovich, Kongratbay Avezimbetovich Sharipov	
МИНЕРАЛЬНО-СЫРЬЕВЫЕ РЕСУРСЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН ДЛЯ ПРОИЗВОДСТВА ЭЛЕКТРОДНЫХ ПОКРЫТИЙ ЭЛЕКТРОДОВ ДЛЯ ИЗНОСОСТОЙКОЙ НАПЛАВКИ.....	2012
Садыков Жaxonгир Насырджанович	



TOVAR-MODDIY RESURLAR HARAKATINI SAMARALI FOYDALANISH METODOLOGIYASI VA UNI ISHLAB CHIQISH BOSQICHLARI.....	2016
Pardayev Sherzod Xolmurodovich, Baxromov Bekzod Yusuf o'g'li	
ECONOMIC DIPLOMACY AND INVESTMENT RELATIONS BETWEEN THE REPUBLIC OF KOREA AND VIETNAM	2021
Abdusalomov Samandar Azizbek o'g'li, G'aniyev Zafarbek Ikrom o'g'li, Malikov Nu'monjon Kamalovich	
MINTAQA IQTISODIY RIVOJLANISH DINAMIKASINI INTEGRATSIYALASHGAN SUBYEKTLAR MODELI	2028
Qodirov Farrux Ergash o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SOLIQ TEKSHIRUVLARI TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	2034
To'rayev Shavkat Shuxratovich	
UY BIZNESI FAOLIYATINI TASHKIL ETISH VA RIVOJLANTIRISH MEKANIZMLARI	2038
Ziyodullayev Navruzbek Botir o'g'li	
TIJORAT BANKLARIDA INNOVATSION BANK XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	2043
Nuriddinov Ziyovuddinxon Zuxriddin o'g'li	
FERMER XO'JALIKLARIDA RAQAMLI MARKETINGNI QO'LLASHNING AMALIY JIHLARI (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)	2055
Nazarova Gulrux Umarjonovna	
KICHIK KORXONALARNING INNOVATSION FAOLIGI VA RAQOBATBARDOSHLIGI: RIVOJLANAYOTGAN IQTISODIYOTLAR MISOLIDA.....	2059
Otabek Azamatov Quyosh o'g'li	
КЛАСТЕР КАК МЕХАНИЗМ НАУЧНО-ПРОИЗВОДСТВЕННОЙ ИНТЕГРАЦИИ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ	2063
Раджабова Гавхархон Умаровна	
TIBBIY XIZMATLAR BOZORI SAMARADORLIGI VA AHOLI SALOMATLIGINI TA'MINLASH MASALALARI	2068
Sayitbayev Shermirza Datkamirzayevich	
YERLARDAN SAMARALI FOYDALANISHDA YER SOLIG'INING O'RNI VA AHAMIYATI	2073
Sh. J. Mamadjanov	
BO'LAJAK MARKETOLOGLARNING KASBIY KO'NIKMALARINI OSHIRISHNING XULQ-ATVOR VA PSIXOLOGIK JIHLARI	2076
Kamoliddin Mamatqulovich Ibodov	
SANOAT SOHASIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI.....	2082
Vaydullayev Ilyos Hamidulla o'g'li	
TIJORAT BANKLARINING MOLIVAVIY KO'RSATKICHLARI ASOSIDA MUAMMOLI KREDITLAR ULUSHINI (NPL) EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH: PANEL MA'LUMOTLAR TAHLILI	2087
Ishniyazov Baxrom Normamatovich, Xurramov Eldor	
FARMASEVTIKA KORXONALARIDA SOTISH XARAJATLARI BUXGALTERIYA HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH.....	2093
Xudaynazarova Dilnoza Gafurovna	
OLIY TA'LIM MUASSASALARI ILMIY-TADQIQOT VA INNOVATSION FAOLIYATI SAMARADORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI.....	2098
Djabbarova Zilola Saburovna	
MINTAQADA OZIY-OVQAT MAHSULOTLARI TA'MINOT ZANJIRINI OPTIMAL TARTIBGA SOLISHNING O'ZIGA XOS JIHLARI.....	2104
Bekjanov Dilmurad Yo'ldashovich	
DUNYO MAMLAKATLARINING ASOSIY IQTISODIY O'SISH OMILLARI VA SO'NGGI YILLARDA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING ASOSIY MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLARINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI TAHLILI	2109
Rasulov Jamshid Shokir o'g'li	
APPLICATION OF MARKETING RESEARCH IN GREEN TOURISM REGIONS.....	2114
K.A. Musakhanov	



ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ФИНАНСОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В УСЛОВИЯХ РЕФОРМИРОВАНИЯ ФИНАНСОВОГО РЫНКА УЗБЕКИСТАНА.....	2119
Хайдарова Нигинахон Шухрат кизи	
JAHONDA BANK XIZMATLARI BOZORIDA RAQAMLASHTIRISH JARAYONLARI VA RAQOBATNI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI.....	2123
Ortiqov O. A.	
MINTAQANI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA SOLIQ TIZIMINING O'RNI VA AHAMIYATI.....	2130
Eshniyazova Yulduz Yuldashbayevna	
TA'LIM XIZMATLARI UCHUN JISMONIY SHAXSLARDAN OLINADIGAN DAROMAD SOLIG'I BO'YICHA IMTIYOZ QO'LLANILISHI MASALALARI.....	2134
Matrasulov Bahodir Erbutaevich, Chorshanbayev Umurzoq Qaynarovich	
SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINING MOLIYAVIY RISK BOSHQARUVIDAGI XALQARO VA MILLIY AMALIYOTI	2138
Abdiyev Otabek Botiraliyevich	
PAXTA-TO'QIMACHILIK KLASSTERLARIDA ISHLAB CHIQARISH ZAHIRALARINI BOSHQARISHNING XORIJIY Tajribalari	2145
Nasimov Baxtiyor Vasiyevich	
YAKKA TARTIBDAGI TADBIRKORLARNI SOLIQQA TORTISHDAGI MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI.....	2153
Mahmadazizov Eldorjon Marifjon o'g'li	
KICHIK IQTISODIY ZONALARNING XORIJIY Tajribalari VA ULARNI O'ZBEKISTON SHAROITIDA QO'LLASH IMKONIYATLARI	2157
Tursunov Sanjar Baxtiyarovich	
ПРОМЫШЛЕННЫЙ ТУРИЗМ В УЗБЕКИСТАНЕ: ПОТЕНЦИАЛ, ПРЕДПОЧТЕНИЯ И ПРОФОРИЕНТАЦИОННЫЕ ПЕРСПЕКТИВЫ	2160
Голышева Елена Вячеславовна, Адылова Диёра Улугбековна	
IQTISODIY TARMOQLARNI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITIYA JALB QILISHNING MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	2170
Muhammadjonov Bobirmirzo Botirjon o'g'li	
TA'LIM MENEJMENTIDA MOLIYAVIY XATAR TUSHUNCHASI.....	2174
Pulatova M.B., A.T.Saldarbekov	
KICHIK BIZNES SOHASINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI IFODALOVCHI STATISTIK KO'RSATKICHLARNI BAHOLASH	2179
Arzikulov Otabek Ali o'g'li	
HUDUDLARNING TURIZM SANOATINI RIVOJLANTIRISHDA MAHALLIY AHOLINING YASHIL TURIZMDA ISHTIROKINI KENGAYTIRISH STRATEGIYALARI	2187
Hafizov Abdulla Olimjonovich	
O'ZBEKISTON HUDUDLARIDA ELEKTRON CHAKANA SAVDONING KENGAYISHI VA UNING ISTE'MOL TOVARLAR BOZORI RIVOJLANISHIDAGI ROLI	2193
Abdirashidov Ashirali	
O'ZBEKISTONDA SIFATLI IQTISODIY O'SISHNING MUAMMO VA ISTIQBOLLARI.....	2199
Pulatova Moxigul	
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI BOZORINING RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI VA INFRATUZILMANI SHAKLLANTIRISHNING MUAMMOLI MASALALARI	2205
Hudayberdiyev Furqat Imomnazar o'g'li	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA OILAVIY TADBIRKORLIK FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISHNI STATISTIK TAHLILI	2211
Sayfullayev Siddik Nosirovich, Valiev Xayrulla Ismatullaevich	
HUDUDIY MOLIYA BOSHQARUVIDA G'AZNACHILIK XIZMATINING NAZORAT VA TARTIBGA SOLISH MEKANIZMLARI.....	2217
Tangriyeva Farida Abduraimovna	
O'ZBEKISTON MOLIYA TIZIMIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONLARI VA ULARNING SAMARADORLIKKA TA'SIRI	2222
Karjavova Xurshida Abdumalikovna	



O'ZBEKISTONDA SOLIQ MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH ORQALI XUFYONA IQTISODIYOTNI QISQARTIRISH.....	2227
Karimov Norboy G'anievich	
AVTOMOBIL YO'LLARI QURILISHI TADBIRKORLIGIDA DXSH MEXANIZMINI AMALGA OSHIRISH XUSUSIYATLARINING QIYOSIY TAHLILI.....	2231
Baxora Boymurodovna Sadinova, Farxod Baxriddinovich Axrorov	
РОЛЬ ЧЕЛОВЕЧЕСКИХ РЕСУРСОВ В ОБЕСПЕЧЕНИИ УСТОЙЧИВОЙ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ: ИНТЕГРАЦИЯ VRIO-ЛОГИКИ И ESG-ПОДХОДА.....	2237
Холмухамедова Феруза	
FRANSUZ TILIDA SAYYOHLIK TERMINLARINING MULTIMODAL VEKTOR XUSUSIYATLARI.....	2242
Abduaxadova Zilola Djamoliddinovna	
TADBIRKORLIK VA TADBIRKORLIK MUHITIGA NAZARIY QARASHLAR EVOLUTSIYASI.....	2245
Uzakov Sh.Sh.	
AGLOMERATSIYALARDA AQLLI MONITORING TIZIMINI JORIY ETISHNING USLUBIY JIHATLARI	2250
Mardonov Shohruh Shuhrat o'g'li	
O'ZBEKISTONDA TAX FREE TIZIMINI XORIJ TAJRIBASI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH	2255
Safarov G'iyosiddin Abdullayevich	
DAVLAT MOLIVAVIY NAZORATIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI	2260
Temirov Muradjon Najmiddinovich	
SURXONDARYO VILOYATIDA DAVOLASH-SOG'LOMLASHTIRISH TURIZMI FAOLIYATINI O'RGANISHDA GEOGRAFIK AXBOROT TIZIMLARI (GAT)NI QO'LLASH MASALALARI	2266
Murtazayeva Gulrux Isabek qizi	
KORXONALARDA INSON KAPITALIDAN SAMARALI FOYDALANISH YO'LLARI: NAZARIYA, AMALIYOT VA GLOBAL BRENDLAR TAJRIBASI	2275
Axmedov Muzaffar Shokirjonovich	
ESTIMATING DEMAND AND SUPPLY FOR COTTON-TEXTILE CLUSTER PRODUCTS	2281
Nasimov Bakhtiyor Vasievich	
MOLIVAVIY HISOBOT AUDITINI REJALASHTIRISH JARAYONINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	2288
Xajimuratov Nizomjon Shukurullayevich	
BANKLAR MOLIVAVIY FAOLIYATIDA NATIJA SAMARADORLIGINI ANIQLASHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI	2292
Alimjanova Dilrabo Sobirjanovna	
XORAZM VILOYATIDA YOSHLAR BANDLIGINI OSHIRISH ORQALI INSON KAPITALIDAN SAMARALI FOYDALANISH MASALALARI	2297
Yusubboyeva Dinora Qudrat qizi	
O'ZBEKISTONDA BANKLARNI TRANSFORMATSIYA QILISH JARAYONINING JORIY HOLATI TAHLILI	2302
Umarova Malika Baxtiyarovna	
BARQAROR IQTISODIYOTNI TA'MINLASHDA SOLIQ SIYOSATINING SAMARADORLIGI	2311
Saitov Sirojiddin Abduvaliyevich	
ОСОБЕННОСТИ ИНВЕСТИЦИЙ В ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ КАПИТАЛ В УСЛОВИЯХ ТРАНСФОРМАЦИИ ЭКОНОМИКИ	2315
Саримсакова Малохат Хикматуллаевна	
IJARANING ME'YORIY-HUQUQIY ASOSLARI	2318
Djumayeva Guzal Axtamovna	
AGROSANOAT INNOVATION MARKETING FAOLIYATI YURITISH AMALIYOTINING MILLIY XUSUSIYATLARI VA USTUVORLIKLARI TAHLILI.....	2324
Tuksanov Ilxomjon Ismatovich	
BALIQCILIK SOHASIDA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISHNING NAZARIY ASOSLARI VA O'ZBEKISTON IQTISODIY MUHITIDA UNING SAMARADORLIGINI BAHOLASH	2332
Rajapov Xayrulla Bekdurdiyevich	



TIJORAT BANKLARINING KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI FAOLIYATINI KREDITLASH AMALIYOTINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI	2338
Melikov Otabek Maxmadaminovich	
RAQAMLI TURIZM TIZIMINI TASHKIL ETISH ASOSLARI VA RAQAMLASHTIRISHNING AHAMIYATI	2344
Najmiddinov Sulton Nurali o'g'li	
KORXONANI STRATEGIK BOSHQARISHDA KORXONAGA NISBATAN RAQOBAT BOSIMINI BAHOLASHNINING IMITATSION MODEL (OLMALIQ KON METALLURGIYA KOMBINATI AJ KORXONASI MISOLIDA)	2348
Nazarova Sitorabonu Sharofiddinovna	
DEVELOPMENT OF THE DIGITAL ECONOMY IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN	2357
Ziyayeva Mukhtasar Mansurjanovna	
SANOAT ISHLAB CHIQARISHNING IQLIM O'ZGARISHLARIGA TA'SIRI	2362
Doniyorova Shaxnoza Doniyorovna	
FUNDAMENTALS OF FORMING ACCOUNTING POLICIES FOR LEASING COMPANIES BASED ON INTERNATIONAL FINANCIAL REPORTING STANDARDS	2368
Baxadirov Alisher Komilovich	
SUG'URTA KOMPANIYALARINING INVESTITSION FAOLIYATINI INNOVATSION ASOSDA RIVOJLANTIRISH.....	2368
Jahongir Gadayev, Zarif Axrorov	
DAVLATNING IJOBIY IMIJINI YARATISHDA TURIZM VA XALQ DIPLOMATIYASINING STRATEGIK O'RNI	2372
Kasimova Zilola G'ulomiddin qizi	
СПЕЦИФИКА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТОВАРНОЙ ПОЛИТИКИ НА ЗАРУБЕЖНЫХ РЫНКАХ	2386
Абдуллаев Азиз Курбанович	
XUSUSIY KAPITALNING OPTIMAL TARKIBINING AKSIYADORLIK JAMIYATLARI MOLIVAVIY BARQARORLIGIGA TA'SIRI.....	2391
Qurbonov Xayrilla	
BANK MAHSULOTLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY VA METODOLOGIK ASOSLARI	2399
Xujamuratov Abbos Mardonovich	
O'ZBEKISTONDA ISLOM BANKCHILIGINI JORIY ETISHNING NAZARIY VA METODOLOGIK ASOSLARI	2404
Voxidov Oybek Roziqovich	
BOJXONA TO'LOVLARINI UNDIRILISHINING AMALDAGI HOLATI TAHLILI	2409
Muqimov Asrorjon Rasulovich	
RAQAMLI IQTISODIYOT VA IQTISODIY XAVFSIZLIK SHAROITIDA DDOS HUYUMLARIGA QARSHI SUN'IY INTELLEKT AGENTLARINI QO'LLASH.....	2413
Bekov Sanjar Nigmandjonovich	
IQTISODIYOT TARMOQLARINI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYALARINI ISHLAB CHIQISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI	2418
Begimova Dilshoda Komiljonovna	
SUG'URTA KOMPANIYALARIDA ESG INTEGRATSIYASI VA YASHIL SUG'URTA MAHSULOTLARINING RIVOJLANISH IMKONIYATLARI	2424
Kadirov Raxim Karimovch	
ECONOMIC ASSESSMENT OF MEASURES TO REDUCE THE SHORTAGE OF FREIGHT WAGONS IN RAILWAY TRANSPORT.....	2429
Egamberdieva Khurshidakhon Alisherovna	
TIJORAT BANKLARDA OPERATSION RISKLARNI BOSHQARISHNING NAZARIY ASOSLARI	2435
Nishanov Shoazam Baxramovich	
O'ZBEKISTONDA XOTIN-QIZLAR TADBIRKORLIGINI QO'LLAB-QUVVATLASH BO'YICHA DAVLAT SIYOSATI	2440
Maksumova Umidaxon Sadikjonovna	



ПРЕДПОСЫЛКИ ФОРМИРОВАНИЯ И РАЗВИТИЯ ЦИФРОВОГО ИНВЕСТИЦИОННОГО ПОТЕНЦИАЛА НА ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОМ ТРАНСПОРТЕ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	2445
Каракулов Фарход Зайпудинович	
O'ZBEKISTON TURIZM SANOATI MUVAFFAQIYATINI BAHOLASHNING XUSUSIYATLARI	2451
Esonboyev Baxodir Bakir o'g'li	
ESG TAMOIYILLARI ASOSIDA BIZNES SUBYEKTLARINING MOSLASHUVCHANLIGINI BOSHQARISH KONSEPSIYASI	2456
Joldasov Damir Rauajovich	
O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA DEPOZIT OPERATSIYALARINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH	2461
Maxmudova Dilafruz Raxmonovna	
DAVLAT BUDJETINING SOLIQLI DAROMADLARI TAHLILI	2466
Shirinov Sabir Erkinovich	
"YASHIL" BANKLARDA KREDIT RISKLARINI BOSHQARISHNING XALQARO TAJRIBASI	2472
Tulkinova Maftuna Anvarbek qizi	



“YASHIL” BANKLARDA KREDIT RISKLARINI BOSHQARISHNING XALQARO TAJRIBASI

Tulkinova Maftuna Anvarbek qizi

Tashkent International University, tayanch doktorant

E-mail: maftuna.r999@gmail.com

Annotatsiya. Barqaror iqtisodiyotga o'tish sharoitida yashil banklar ekologik jihatdan xavfsiz loyihalarni moliyalashtirishda muhim rol o'ynaydi. Bunday moliyaviy institutlar faoliyatida ustuvor vazifalardan biri atrof-muhit omillarini hisobga olgan holda kredit risklarini samarali boshqarishni ta'minlashdan iborat. Mazkur maqolada yashil banklarda kredit risklarini boshqarish bo'yicha xalqaro tajriba, xususan, ESG mezonlaridan foydalanish, iqlimiy stress-testlarni joriy etish hamda barqaror kreditlash strategiyalarini qo'llash masalalari tahlil qilinadi. Shuningdek, rivojlangan yashil moliyaviy infratuzilmaga ega mamlakatlarda amalda bo'lgan tartibga soluvchi talablar va ilg'or amaliyotlarga alohida e'tibor qaratiladi.

Kalit so'zlar: yashil banklar, kredit riski, ESG, yashil moliyalashtirish, riskni kamaytirish, Basel III, moliyaviy barqarorlik, yashil kreditlar, ekologik jihatdan qulay investitsiyalar.

Abstract. In the context of the transition to a sustainable economy, green banks play a crucial role in financing environmentally friendly projects. One of the key priorities for such financial institutions is to ensure effective credit risk management while incorporating environmental considerations. This article analyzes international experience in managing credit risks in green banks, including the application of ESG criteria, the implementation of climate stress testing, and the adoption of sustainable lending strategies. Particular attention is paid to regulatory requirements and best practices applied in countries with well-developed green financial infrastructures.

Key words: green banks, credit risk, ESG, green finance, risk mitigation, Basel III, financial stability, green loans, eco-friendly investments.

Аннотация. В условиях перехода к устойчивой экономике «зелёные» банки играют значимую роль в финансировании экологически безопасных проектов. Одним из приоритетных направлений деятельности таких финансовых институтов является эффективное управление кредитными рисками с учётом экологических факторов. В статье анализируется международный опыт управления кредитными рисками в «зелёных» банках, включая применение ESG-критериев, использование климатического стресс-тестирования и реализацию устойчивых кредитных стратегий. Особое внимание уделяется регуляторным требованиям и передовым практикам, применяемым в странах с развитой «зелёной» финансовой инфраструктурой.

Ключевые слова: зелёные банки, кредитный риск, ESG, зелёное финансирование, снижение рисков, Базель III, финансовая стабильность, зелёные кредиты, экологически безопасные инвестиции.

KIRISH

So'nggi yillarda barqaror rivojlanish maqsadlarini¹ global miqyosda ustuvor vazifa sifatida qabul qilish natijasida moliya sektorida sezilarli institutsional va operatsion o'zgarishlar yuz bermoqda. Xususan, bank sektorida ekologik, ijtimoiy va boshqaruv (ESG) omillarini hisobga olgan moliyalashtirish mexanizmlari kengayib, “yashil banklar” konsepsiyasi shakllandi. Ushbu transformatsiya jarayonida kredit risklarini samarali boshqarish strategik ahamiyat kasb etmoqda, chunki yashil moliyalashtirishning rivojlanishi banklar faoliyatida atrof-muhit va iqlim bilan bog'liq yangi risklarning yuzaga kelishini taqozo etadi.

An'anaviy bank amaliyotida kredit risklari asosan qarz oluvchilarning moliyaviy ko'rsatkichlari va to'lov qobiliyatiga asoslanib baholansa, yashil banklarda ushbu omillarga qo'shimcha ravishda atrof-muhitga ta'sir, ekologik risklar hamda barqarorlik mezonlarini hisobga olish zarurati mavjud. Hozirgi kunda global moliya tizimi iqlim o'zgarishi bilan bog'liq xavf-xatarlarni tan olgan holda, ularga moslashuvchan boshqaruv mexanizmlarini joriy etishga intilmoqda. Dengiz sathining ko'tarilishi, ekstremal ob-havo hodisalari, o'tacha haroratning oshishi kabi iqlim omillari bank aktivlari qiymatiga va qarz oluvchilarning moliyaviy barqarorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin.

1 Birlashgan Millatlar Tashkiloti. 17 ta dunyoni o'zgartirishga yo'naltirilgan Barqaror rivojlanish maqsadlari. <https://uzbekistan.un.org/uz/110345-17ta-dunyoni-ozgartirishga-yonaltirilgan-barqaror-rivojlanish-maqsadlari>



Mazkur sharoitda kredit portfellarini samarali boshqarish uchun yangi yondashuvlar, ko'rsatkichlar va nazorat mexanizmlarini ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, so'nggi yillarda iqlim xavf-xatarlarini baholashga qaratilgan stress-testlar, yashil taksonomiyalar hamda ESG reyting tizimlari xalqaro bank amaliyotiga faol tatbiq etilmoqda.

O'zbekistonda ham yashil moliyani rivojlantirish bo'yicha muhim huquqiy va institutsional asoslar shakllantirilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi "2019–2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4477-sonli qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-436-sonli qarori, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 25-oktabrdagi "Milliy "yashil" iqtisodiyot taksonomiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 561-sonli qarori mamlakat regulyatorlari tomonidan ESG tamoyillarining xalqaro tendensiyalarga mos ravishda izchil targ'ib etilayotganini ko'rsatadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

So'nggi yillarda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar ESG tamoyillarini bank faoliyatiga integratsiya qilish va kredit risklari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik banklar barqarorligiga sezilarli ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi. Xususan, kredit risklarini boshqarishda ESG omillarini hisobga olishning nazariy va amaliy jihatlarini xorijiy iqtisodchi olimlar T. Feng, J. Xu, Z. Zhou hamda Luo² tomonidan empirik jihatdan asoslab berilgan. Ularning tadqiqotlari yashil kredit siyosati tijorat banklarining kredit risklariga sezilarli ta'sir ko'rsatishini hamda ekologik mezonlarga mos kreditlash bank kredit portfeli sifatini yaxshilashini ko'rsatadi.

J. Gopane³ o'z tadqiqotlarida ESG talablariga rioya qiluvchi banklarda kredit risklari nisbatan past bo'lishini aniqlab, ESG integratsiyasi bank tizimi barqarorligini mustahkamlovchi muhim mexanizm ekanini asoslaydi. Shuningdek, D. Tomasso, V. Pacelli va M. Povio⁴ tomonidan yashil kreditlar va bank risklari o'rtasidagi bog'liqlik hamda moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash masalalari chuqur tahlil qilingan.

Bundan tashqari, N. Marpaung, S. Wahyudi va R. Pangestuti⁵ tomonidan olib borilgan izlanishlarda ESG ma'lumotlarini oshkor qilish, kredit risklarini boshqarish va firma qiymati o'rtasidagi o'zaro aloqalar institutsional jihatdan xilma-xil Osiyo–Tinch okeani mintaqasi ma'lumotlari asosida o'rganilgan. Ushbu tadqiqotlar yashil moliyalashtirishning bank risklarini kamaytirishdagi salohiyatini yanada kengroq ochib beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida quyidagi metodologik yondashuvlardan foydalanildi:

- tahliliy metod – xalqaro ilmiy adabiyotlar, hisobotlar hamda esg asosida kredit risklarini samarali boshqarishga oid konsepsiyalar tizimli ravishda tahlil qilindi.
- statistik metod – xorijiy davlatlarning yashil kreditlash bo'yicha ochiq statistik ma'lumotlari o'rganilib, ularning dinamikasi baholandi.
- empirik metod – yashil kreditlar asosida moliyalashtirilgan loyihalarning amaliy natijalari va banklar tajribasi tahlil qilindi.
- solishtirma metod – turli mamlakatlar tajribasi kredit risklarini boshqarish va kamaytirish yondashuvlari asosida qiyosiy baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Barqaror rivojlanish tamoyillariga asoslangan banklar kredit risklarini boshqarishda ESG omillarini qaror qabul qilish jarayonining barcha bosqichlariga tizimli ravishda integratsiya qilishga alohida e'tibor qaratmoqda. Xususan, bunday banklar an'anaviy kredit tahlili modellariga qo'shimcha ravishda qarz oluvchilarning ekologik va ijtimoiy risklarini baholash mexanizmlarini amaliyotga joriy etmoqda. Amaliy tajribalar shuni ko'rsatadiki, ESG mezonlaridan foydalanish mijozlarning kreditga layoqatini aniqlashda ilgari yetarli darajada e'tiborga olinmagan muhim omillarni aniqlash imkonini beradi.

Jumladan, kompaniyalarning ta'minot zanjirlari, uglerod izi darajasi hamda ekologik majburiyatlarini chuqur tahlil qilish ularning uzoq muddatli moliyaviy barqarorligiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan omillarni oldindan

2 Feng, T., Xu, J., Zhou, Z., & Luo, Y. (2024). How green credit policy affects commercial banks' credit risk? *Journal of Cases on Information Technology*, 26(1), 1–21.


3 Gopane, T. J. (2025). Policy implications of ESG-moderated credit risk on bank profitability. *Green Finance*, 7(3), 406.

4 Di Tommaso, C., Pacelli, V., & Povio, M. M. (2025). Green loans and bank risk: Navigating the path to sustainable finance. *International Review of Economics & Finance*, 101, 104138.

5 Marpaung, N. N., Wahyudi, S., & Pangestuti, I. R. (2025). Green banking in transition: ESG disclosure, credit risk governance, and firm value in an institutionally diverse Asia–Pacific dataset. *Green Finance*, 7(4), 689.



baholashga xizmat qiladi. Natijada, banklar kredit portfeli sifatini oshirish, potensial risklarni erta aniqlash va ularni samarali boshqarish imkoniyatiga ega bo'lmoqda (1-rasm).



Ekologik mezonlar (E — Environmental)

- Tabiat va inson uchun xavfsiz materiallardan foydalanish
- Tabiiy resurslar iste'molini kamaytirish
- Chiqindilar miqdorini kamaytirish; xomashyoni qayta ishlash va qayta foydalanish amaliyotini joriy etish
- Aholi yashaydigan hududga chiqariladigan chiqindilarni kamaytirish
- Resurslardan samarali foydalanish

Ijtimoiy mezonlar (S — Social)

- Xodimlar uchun mehnat va dam olish sharoitlari
- Xodimlarni o'qitish va malaka oshirish
- Tenglik va kamsitishga yo'l qo'ymaslik
- Iste'molchilar ehtiyoj va talablarini qondirish
- Hudud rivojiga hissa qo'shish (masalan, hududlarni obodonlashtirish, hasharlarda ishtirok etish, bolalar maydonchalarini barpo etish)

Korporativ boshqaruv mezonlari (G — Governance)

- Biznesni shaffof olib borish
- Real va haqqoniy hisobotlarni taqdim etish
- Raqobatbardosh ish haqi tizimi
- Menejer va rahbarlar faoliyatining samaradorligi
- Uzoq muddatli biznes strategiyasiga ega bo'lish
- Halol va ochiq boshqaruv yuritish

1-rasm. ESG mezonlari tarkibi

Ssenariyli tahlil hamda iqlimiy stress-testlar kredit risklarini boshqarishda muhim vositalardan biri hisoblanadi. Iqlim bilan bog'liq moliyaviy ma'lumotlarni oshkor qilish bo'yicha ishchi guruh (TCFD) tavsiyalariga muvofiq, yetakchi banklar o'z kredit portfellarining va mijozlarining turli iqlimiy ssenariylarga nisbatan zaiflik darajasini baholamoqda. Ushbu ssenariylar, odatda, "tartibli" — ya'ni uglerod izini bosqichma-bosqich kamaytirishga asoslangan o'tish modeli hamda "noaniq" — iqlim siyosatida keskin o'zgarishlar kuzatilmaydigan rivojlanish modelini o'z ichiga oladi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Atrof-muhit dasturi doirasidagi Moliyaviy tashabbus (UNEP FI) tomonidan 16 ta xalqaro bank ishtirokida amalga oshirilgan sinov loyihasi iqlim o'zgarishlarining kredit portfellariga ta'sirini baholash bo'yicha yagona yondashuvni shakllantirishga xizmat qildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, tartibli o'tish ssenariysi sharoitida kreditlar bo'yicha defoltlar darajasi nisbatan past bo'ladi. Bu esa keskin iqlim siyosati o'zgarishlari yoki ekologik ofatlar natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan moliyaviy yo'qotishlarni sezilarli darajada kamaytirish imkonini beradi.

ESG reytinglari va skoring tizimlarini kredit tahliliga integratsiya qilish ham muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Mijozlarning ESG ko'rsatkichlarini baholash maqsadida ko'plab "yashil" banklar ichki skoring tizimlarini ishlab chiqmoqda yoki tashqi reyting agentliklari tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlardan foydalanmoqda. Ushbu jarayonda qarz oluvchilarning ekologik mas'uliyati, ijtimoiy ta'siri hamda korporativ boshqaruv sifati kompleks tarzda hisobga olinadi. Kredit tahlili jarayonida ESG riski nisbatan yuqori bo'lgan mijozlar, jumladan uglerodga boy sanoat tarmoqlarida faoliyat yurituvchi yoki ekologik buzilishlarga yo'l qo'ygan kompaniyalar yanada qat'iy mezonlar asosida baholanadi. Natijada, ularga nisbatan kreditlash shartlari kuchaytirilishi yoki maksimal xavf darajasi cheklanishi mumkin. Ushbu yondashuv kredit portfelida ESG risklarining yuqori konsentratsiyasini oldindan kamaytirish hamda qarz oluvchilarni barqaror faoliyat yuritishga rag'batlantirishga xizmat qiladi. Mazkur strategiya Yevropa banklari tomonidan Yevropa Bank Boshqarmasi tavsiyalariga muvofiq keng qo'llanilmoqda.

Moliyalashtirish portfelini diversifikatsiya qilish va ustuvor yo'nalishlarni aniqlash kredit risklarini samarali boshqarishda muhim ahamiyat kasb etadi. Barqaror rivojlanish tamoyillariga amal qiluvchi banklar kredit siyosatini takomillashtirish orqali resurslarni ekologik jihatdan mas'ul va istiqbolli sohalarga yo'naltirmoqda. Jumladan, qayta tiklanuvchi energiya manbalari, energiya samarador texnologiyalar hamda boshqa "yashil" tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash banklarning strategik ustuvor yo'nalishlariga aylanmoqda. Ushbu yondashuv banklarning ekologik strategiyasiga mos kelishi bilan birga, kredit portfelining barqarorligini mustahkamlaydi va uzoq muddatli risklarni optimallashtirishga xizmat qiladi, xususan, portfel tarkibida istiqbolsiz aktivlar ulushining bosqichma-bosqich kamayishiga imkon yaratadi.



Kengaytirilgan atrof-muhit tekshiruvi va risklarni sug'urtalash amaliyoti "yashil" loyihalarni moliyalashtirishda keng qo'llanilmoqda. Kredit ajratishdan oldin banklar loyihaning atrof-muhitga ta'sirini batafsil o'rganadi, xalqaro ekologik standartlarga, jumladan Ekvator tamoyillariga muvofiqligini baholaydi hamda salbiy ta'sirlarni kamaytirish bo'yicha rejalarining mavjudligini tekshiradi. Natijada, bank kredit ajratishni ekologik risklarni boshqarishga oid aniq talablar bilan bog'lashi yoki risk darajasi yuqori bo'lgan loyihalarni moliyalashtirishdan voz kechishi mumkin. Bundan tashqari, innovatsion "yashil" loyihalar uchun banklar ko'pincha davlat kafolatlari, siyosiy yoki tabiiy risklarni sug'urtalash, shuningdek, xalqaro moliyaviy institutlar bilan hamkorlik kabi risklarni taqsimlash mexanizmlaridan foydalanadi. Bunday yondashuv banklarning potensial yo'qotishlarini kamaytirish bilan birga, ilg'or texnologiyalarni moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Ayrim mamlakatlar va ularning bank tizimlari iqlimiy hamda ESG risklarini bank faoliyatiga integratsiya qilish borasida salmoqli tajriba to'plagan. Quyidagi jadvalda "yashil" moliyalashtirish sohasida kredit risklarini boshqarish bo'yicha ilg'or xorijiy amaliyotlar umumlashtirilgan (1-jadval).

1-jadval. Barqaror moliyaviy tizimga ega mamlakatlarda "yashil" kredit risklarini boshqarish bo'yicha muvaffaqiyatli tajribalar⁶

Davlat	"Yashil" kredit riskini boshqarishdagi muvaffaqiyatli amaliyotlar
Germaniya	Tartibga solish va stress-testlar. Germaniya banklari Yevropa Markaziy banki tomonidan 2021-yilda o'tkazilgan umumyevropa iqlimiy stress-testida ishtirok etgan bo'lib, natijalar iqlim siyosati bosqichma-bosqich amalga oshirilgan ssenariylarda defolt xavfining nisbatan past ekanini ko'rsatdi. Milliy regulyator BaFin banklardan iqlimiy risklarni chuqur tahlil qilishni hamda tegishli ekspozitsiyalarni ochiq oshkor etishni talab qiladi. Ixtisoslashgan yashil banklar. Jumladan, <i>UmweltBank</i> faqat ekologik loyihalarni moliyalashtiradi va qat'iy loyiha tanlovi hamda chuqur tahlil asosida barqaror tashabbuslarni kreditlab, kredit yo'qotishlari darajasini past darajada ushlab kelmoqda.
Niderlandiya	Iqlim tahlilining erta joriy etilishi. Niderlandiya Markaziy banki (DNB) 2018-yilda banklar, sug'urta kompaniyalari va pensiya jamg'armalari uchun kompleks "o'tish riski" stress-testini o'tkazgan ilk regulyatorlardan biri hisoblanadi. Ushbu tashabbus banklarni past uglerodli ssenariylarning mijozlar portfeliga ta'sirini baholashga undadi. Bank innovatsiyalari. <i>Triodos Bank</i> barqarorlik tamoyillariga asoslangan holda ESG risklarini "uch bosqichli himoya" modeli orqali boshqaradi. <i>ING Bank</i> tomonidan ishlab chiqilgan <i>Terra</i> metodologiyasi esa Parij kelishuvida belgilangan 1,5°C isish chegarasiga mos ilmiy asoslangan ssenariylar orqali kredit portfelini qayta shakllantirishga xizmat qiladi.
Buyuk Britaniya	Nazorat tashabbuslari. Buyuk Britaniyada 2022-yildan boshlab yirik banklar va kompaniyalar uchun iqlimiy risklar bo'yicha majburiy TCFD hisobotlari joriy etilgan. Angliya Banki 2021-yilda 30 yillik istiqbolni qamrab olgan <i>Climate Biennial Exploratory Scenario</i> stress-testini o'tkazgan. Bank amaliyoti. Britaniya banklari <i>UNEP FI</i> va <i>Net-Zero Banking Alliance</i> kabi xalqaro tashabbuslarda faol ishtirok etadi. <i>Barclays</i> va <i>HSBC</i> ESG risklari bo'yicha ichki siyosatlarini ishlab chiqib, karbonatlashgan sohalariga kredit ajratishni bosqichma-bosqich qisqartirish hamda 2050-yilgacha kredit portfellarida "nol sof chiqindilar"ga erishish majburiyatini olgan.
Kanada	Regulyator ko'rsatmalari. Kanada moliyaviy institutlarini nazorat qilish boshqarmasi (OSFI) 2022-yilda iqlimiy xavflarni boshqarish bo'yicha B-15 qo'llanmasini e'lon qilgan bo'lib, u banklardan iqlimiy risklarga nisbatan stressga chidamlilikni oshirish va ishonchli ma'lumotlarga asoslangan integratsiyalashgan yondashuvlarni qo'llashni talab etadi. Amaliyotlar. 2021-yilda OSFI va Kanada Banki tomonidan o'tkazilgan ssenariyli tahlillar kechiktirilgan yoki keskin o'tish ssenariylarining moliyaviy tizim uchun yuqori kredit risklarini yuzaga keltirishini ko'rsatdi. <i>RBC</i> va <i>TD</i> kabi yirik banklar TCFD hisobotlarida iqlim ssenariylarini ochiqlab, ularni kredit strategiyalariga integratsiya qilmoqda. Shuningdek, ESG due diligence mexanizmlari orqali qazilma yoqilg'i loyihalarini moliyalashtirish qarorlari uglerod izi va atrof-muhitga ta'sirni baholash asosida qabul qilinmoqda. Davlatning "yashil" moliyalashtirish dasturlari qayta tiklanuvchi energiya va toza texnologiyalar hisobiga kredit portfellarini diversifikatsiya qilishni rag'batlantirmoqda.

Yuqorida ko'rib chiqilgan amaliyotlar shuni ko'rsatadiki, "yashil" kredit risklarini boshqarishdagi asosiy muvaffaqiyat omillari quyidagilardan iborat:

- regulyatorlarning faol ishtiroki, jumladan iqlimiy stress-testlarni joriy etish, metodik ko'rsatmalar ishlab chiqish va majburiy oshkorlik talablarini belgilash;
- banklarning proaktiv yondashuvi, ya'ni esg risklarini bank biznes-modeliga tizimli va chuqur integratsiya qilish.

Aynan ushbu omillarning uyg'unligi barqaror moliyaviy tizimga ega mamlakatlarda qat'iy standartlar va bank institutlarining innovatsion tashabbuslari orqali sezilarli taraqqiyotga erishilishiga xizmat qilmoqda.

6 Muallif tomonidan olib borilgan izlanishlar asosida tayyorlandi.



Hozirgi zamon bank amaliyotida kredit siyosatini shakllantirish jarayonida ekologik omillarni hisobga olish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, yashil iqtisodiyot sharoitida qarz oluvchining ekologik tavakkalchiligi, uning faoliyatining atrof-muhitga salbiy yoki ijobiy ta'siri, shuningdek, iqlimiy risklarga duch kelish ehtimoli moliyaviy institutlar tomonidan kredit risklarini baholashda muhim mezon sifatida qaralmoqda. Kredit siyosatiga ekologik mezonlarni tatbiq etish banklarga nafaqat risklarni chuqurroq tahlil qilish, balki moliyalashtirilayotgan tashabbuslarning uzoq muddatli barqarorligini ta'minlash imkonini ham beradi.

Ekologik omillarni risklarni boshqarish tizimiga integratsiyalash orqali banklar iqlim o'zgarishi bilan bog'liq risklarni erta bosqichda aniqlash imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa strategik qarorlarni o'z vaqtida moslashtirishga xizmat qiladi. Natijada, kredit portfeli sifati saqlanib qoladi hamda potentsial moliyaviy yo'qotishlar ehtimoli kamayadi.

Iqlimiy xatarlarni aniqlash. "Yashil" risklarni samarali boshqarish maqsadida banklar, avvalo, hisobga olinishi lozim bo'lgan asosiy omillarni aniqlaydi. Ushbu omillar, odatda, ikki asosiy yo'nalishga bo'linadi: fizik risklar va tranzitsion risklar. Fizik risklar deganda ob-havo ofatlari, jumladan toshqinlar, qurg'oqchilik va dengiz sathining ko'tarilishi natijasida bank aktivlariga yetadigan zarar tushuniladi. Tranzitsion risklar esa past uglerodli iqtisodiy tizimga o'tish jarayonida yuzaga keladigan moliyaviy yo'qotishlarni anglatadi. Bunga yangi iqlimiy qonunchilik, karbonat chiqindilari uchun to'lovlar, texnologik o'zgarishlar yoki iste'molchilar talabidagi siljishlar sabab bo'lishi mumkin.

Mazkur risk omillari kredit yo'qotishlariga turli mexanizmlar orqali ta'sir ko'rsatadi. Xususan, fizik risklar garov obyektlarining shikastlanishi, mijozlar faoliyatining vaqtincha to'xtashi va to'lov qobiliyatining pasayishi orqali namoyon bo'ladi. Tranzitsion risklar esa xarajatlarning oshishi va eskirgan biznes-modellarning qadrsizlanishi natijasida yuzaga kelib, bank aktivlarining "muzlab qolishi" ehtimolini kuchaytiradi. Ushbu mexanizmlarni chuqur anglagan banklar kredit siyosati va risklarni boshqarish amaliyotlarini izchil ravishda takomillashtirmoqda.

Risk-appetit va strategiyaga integratsiya. Korporativ boshqaruv darajasida banklar ekologik risklarni o'z risk-appetiti doirasiga kiritmoqda. Jumladan, yuqori uglerod iziga ega kompaniyalarga ajratiladigan kreditlarning maksimal ulushi yoki ko'mir bilan bog'liq loyihalarni moliyalashtirish bo'yicha cheklovlar kabi ko'rsatkichlar belgilanib, Direktorlar kengashi tomonidan tasdiqlanadi. Iqlimiy risklarning bank portfeli uchun ahamiyat darajasi muntazam baholanadi, bunda qisqa muddatli istiqbol bilan bir qatorda uzoq muddatli (10–30 yil) davr ham inobatga olinadi.

Agar muayyan sektor yuqori riskli deb topilsa, bank ushbu sohalar bo'yicha kredit limitlarini pasaytirishi yoki mavjud ekspozitsiyalarni tezlashtirilgan tartibda qisqartirishi mumkin. Bank strategiyasi iqlimiy ssenariylar asosida muntazam yangilanadi. Ko'plab banklar kredit portfelidagi issiqxona gazlari chiqindilari intensivligini ma'lum bir yilgacha bosqichma-bosqich kamaytirish bo'yicha aniq maqsadlar belgilagan bo'lib, bu risk profilini optimallashtirish va portfel tuzilishini barqarorlashtirishga xizmat qiladi.

Yuqori darajadagi rahbariyatning faol jalb etilishi ushbu jarayonning muhim omili hisoblanadi. Ko'plab xalqaro banklarda iqlimiy risklar bo'yicha maxsus qo'mitalar yoki ishchi guruhlar tashkil etilgan bo'lib, ular ESG strategiyasini muvofiqlashtiradi va belgilangan metrikalarga rioya etilishini nazorat qiladi. Shu bilan birga, banklar ichki korporativ madaniyatni ham rivojlantirmoqda: rag'batlantirish tizimlariga portfelning "yashillashuvi" va ekologik samaradorlik bo'yicha maqsadlarga erishish indikatorlari kiritilmoqda. Natijada, atrof-muhit risklarini boshqarish umumiy risk-menejment tizimining ajralmas qismiga aylanmoqda.

Mazkur jarayonning bosqichma-bosqich joriy etilishi banklar uchun tajriba to'plash, ma'lumotlar bazasini boyitish hamda uzoq muddatli prognozlash mexanizmlarini takomillashtirish imkonini yaratmoqda. UNEP FI, yagona taksonomiyalarni ishlab chiqish va xalqaro hamkorlik tashabbuslari doirasida amalga oshirilayotgan ishlar ushbu yo'nalishdagi institutsional salohiyatni izchil rivojlantirish va ilg'or amaliyotlarni keng joriy etishga xizmat qilmoqda.

Hozirgi kunda banklar va nazorat organlari ekologik tavakkalchiliklar bilan bog'liq kredit risklarini baholash va kamaytirish uchun quyidagi asosiy vositalardan foydalanmoqda:

- iqlimiy stress-testlar – uzoq muddatli (2030–2050-yillargacha) moliyaviy barqarorlikni turli iqlimiy ssenariylar asosida modellashtirishga qaratilgan. masalan, angliya markaziy banki va yevropa markaziy banki banklardan toshqinlar chastotasining uch baravarga oshishi yoki CO₂ narxining 100 aqsh dollariga yetishi sharoitida kredit yo'qotishlarini baholashni talab qilgan.

- ESG integratsiyalashgan kredit reytinglari – xalqaro reyting agentliklari tomonidan ishlab chiqilgan ESG Credit Metrics ko'rsatkichlari ichki reyting tizimlariga kiritilmoqda. Defolt ehtimolini hisoblashda ESG ko'rsatkichlari inobatga olinadi, S&P CSA, MSCI, Sustainalytics kabi platformalar kichik va o'rta biznes uchun zarur ma'lumotlarni taqdim etadi.

- ekologik due diligence va monitoring – yirik loyihalar bo'yicha environmental & social ekspertizasi majburiy tus olmoqda. kredit shartnomalarida ekologik talablar, jumladan rekultivatsiya uchun rezervlar belgilab qo'yiladi va kredit ajratilgandan so'ng muntazam monitoring olib boriladi.



Umuman olganda, banklar ekologik risklarni sifat jihatidan baholashdan miqdoriy ko'rsatkichlar asosida baholashga bosqichma-bosqich o'tmoqda. Kelgusida qarz oluvchining "iqlim reytingi" kredit narxiga bevosita ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lib, ekologik jihatdan barqaror kompaniyalar uchun qulayroq kredit shartlari shakllanishi kutilmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, "yashil" banklarda kredit risklarini samarali boshqarish innovatsion yondashuvlar, xalqaro standartlar va ilg'or amaliyotlarning uyg'unlashuviga asoslanadi. Ushbu jarayonda ESG omillari alohida va mustaqil ko'rsatkich sifatida emas, balki qarz oluvchilarning to'lov qobiliyati, kredit portfelining sifati hamda bankning umumiy moliyaviy barqarorligini belgilovchi ajralmas komponent sifatida baholanadi. Mazkur yondashuv kredit risklarini yanada chuqur va kompleks tahlil qilish imkonini yaratadi.

Shuningdek, "yashil" banklarda samarali risk-menejment tizimini shakllantirish shaffoflik va axborot oshkoraligini ta'minlash, uzoq muddatli strategik rejalashtirishni amalga oshirish hamda ekologik va iqlimiy risklar bo'yicha yuqori rahbariyat darajasida aniq javobgarlik mexanizmlarini belgilash bilan chambarchas bog'liqdir.

"Yashil iqtisodiyot"ga o'tish banklar uchun yangi rivojlanish imkoniyatlari va strategik ustunliklarni yuzaga keltiradi. Iqlimiy va ESG risklarini tizimli hamda proaktiv tarzda boshqarish banklarning moliyaviy barqarorligini mustahkamlaydi, "yashil" investorlar va xalqaro moliyaviy institutlar ishonchini oshiradi hamda bozorda barqaror raqobat ustunligini shakllantirishga xizmat qiladi.

Ekologik va iqlimiy risklarni hisobga olgan holda kredit risklarini boshqarish tizimini izchil takomillashtirish moliyaviy tizimning iqlimiy sinovlarga chidamliligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, mazkur yondashuv ekologik jihatdan barqaror iqtisodiy o'sishni moliyalashtirish uchun mustahkam institutsional asos yaratib, bank sektorining uzoq muddatli barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Feng, T., Xu, J., Zhou, Z., & Luo, Y. (2024). How green credit policy affects commercial banks' credit risk? Journal of Cases on Information Technology, 26(1), 1–21.
2. Gopane, T. J. (2025). Policy implications of ESG-moderated credit risk on bank profitability. Green Finance, 7(3), 406.
3. Tran, T., & Tran, Y. (2015). Green bank: International experiences and Vietnam perspectives. Asian Social Science, 11(28), 188.
4. Marpaung, N. N., Wahyudi, S., & Pangestuti, I. R. (2025). Green banking in transition: ESG disclosure, credit risk governance, and firm value in an institutionally diverse Asia-Pacific dataset. Green Finance, 7(4), 689.
5. Di Tommaso, C., Pacelli, V., & Povia, M. M. (2025). Green loans and bank risk: Navigating the path to sustainable finance. International Review of Economics & Finance, 101, 104138.
6. Tulkinova, M. A. (2025-04-16). Yashil iqtisodiyot sharoitida tijorat banklarida kredit risklari: ESG mezonlari asosida baholash va boshqarish. In Yashil taraqqiyot: barqaror kelajak uchun yechimlar (Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi tezislar to'plami).
7. Moliyaviy barqarorlik sharhi (APR-2022): xalqaro banklarning iqlimiy xatarlar haqidagi fikrlari. RBA. www.rba.gov.au
8. ESG News. www.esgnews.com
9. Kredit tahliliga ESG omillarini kiritish. Fitch Learning. www.fitchlearning.com
10. FSAP Niderlandiya (2024): DNBning stress-test tajribasi (2018). IMF. www.imf.org
11. PRB Guidance (UNEP FI): bank strategiyasi namunasi (ING Terra metodologiyasi). www.unepfi.org



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
